

## MAXDUMI A'ZAM KOSONIY TA'LIMOTIDA BAG'RIKENGLIK G'OYALARINING TASAVVUFYI- FALSAFIY TAHLILI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich, Samarqand Agroinnovatsiyalar va  
tadqiqotlar instituti "Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar"  
kafedrası assistenti

## СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УЧЕНИИ МАХДУМИ АЪЗАМА КАСАНИ


Ураков Нодирбек Бобокулович, ассистент кафедры цифровых  
технологий, туризма и гуманитарных наук Самаркандского  
института агроинноваций и исследований

## SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEAS OF TOLERANCE IN THE TEACHINGS OF MAHDUMI AZAM KASANI

Urakov Nodirbek, Samarkand Institute of Agroinnovation and Research,  
Assistant Professor, Department of Digital Technologies,  
Tourism, and Humanities



[https://orcid.org/  
0009-0004-6598-  
1287](https://orcid.org/0009-0004-6598-1287)  
e-mail: [u-  
nodirbek@yande  
x.com](mailto:u-nodirbek@yandex.com)



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi Maxdumi A'zam Kosoniyning falsafiy-diniy qarashlarida bag'rikenglik g'oyalarining mazmuni va mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutasavvifning insonparvarlik, ruhiy poklanish, ijtimoiy muvozanat va diniy bag'rikenglikka oid qarashlari tasavvufiy va falsafiy kontekstda yoritiladi. Shuningdek, Maxdumi A'zam ta'limotida axloqiy kamolot, sabr-toqat, o'zgalarga hurmat va ijtimoiy hamjihatlik tushunchalarining o'rni ochib beriladi. Maqolada bag'rikenglik g'oyalarining bugungi globallashuv sharoitidagi ahamiyati ham asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Maxdumi A'zam Kosoniy, tasavvuf, bag'rikenglik, falsafiy tafakkur, insonparvarlik, axloqiy kamolot, diniy tolerantlik, ma'naviyat.

**Abstract:** This article analyzes the mystical and philosophical foundations of the idea of tolerance in the teachings of Makhdumi A'zam Kosoni, a prominent representative of Central Asian Sufism. The study examines his views on humanism, spiritual purification, moral perfection, and social harmony within the framework of Sufi philosophy. Particular attention is paid to the ethical principles of patience, respect for others, and social solidarity embedded in Makhdumi A'zam's doctrine. The article also highlights the contemporary relevance of Sufi tolerance ideas in the context of globalization and intercultural dialogue.

**Keywords:** Makhdumi A'zam Kosoni, Sufism, tolerance, philosophical thought, humanism, moral perfection, religious tolerance, spirituality.

**Аннотация:** В статье проводится суфийско-философский анализ идей толерантности в учении Махдуми Аъзама Касани — выдающегося представителя суфийской мысли Центральной Азии. Рассматриваются его взгляды на гуманизм, духовное очищение, нравственное совершенствование и социальную гармонию в контексте суфийской философии. Особое внимание

уделяется таким ценностям, как терпимость, уважение к другим и социальная солидарность. Также обосновывается актуальность идей суфийской толерантности в условиях глобализации и межкультурного взаимодействия.

**Ключевые слова:** Махдуми Аъзам Касани, суфизм, толерантность, философская мысль, гуманизм, нравственное совершенствование, религиозная терпимость, духовность.

**Kirish.** Bugungi globallashuv, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi hamda mafkuraviy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan sharoitda bag'rikenglik masalasi ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Turli diniy, madaniy va dunyoviy tizimlarning bir makonda hamjihat yashashi insoniyat oldiga axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat va tolerantlik tamoyillarini mustahkamlash vazifasini qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tarixiy-ma'naviy merosda mavjud bo'lgan bag'rikenglik g'oyalarini chuqur o'rganish va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkuri ana shunday bag'rikenglik, insonparvarlik va axloqiy komillik g'oyalarini shakllantirgan yirik ma'naviy-falsafiy maktablardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu maktab vakillari o'z asarlarida nafaqat diniy-amaliy masalalarni, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat, insoniy munosabatlar va ma'naviy poklanish muammolarini ham falsafiy jihatdan yoritib berganlar. Ayniqsa, tasavvufda bag'rikenglik Allohga muhabbat, insonni e'zozlash va yaratilganga rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lish g'oyasi orqali asoslab beriladi. Mazkur ilmiy maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf an'alarining yirik namoyandasi Maxdumi A'zam Kosoniyning ta'limotida bag'rikenglik g'oyalarining tasavvufiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Maxdumi A'zam Kosoniy Naqshbandiya tariqati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mutasavvif sifatida insoniy kamolot, axloqiy yetuklik va ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning qarashlarida bag'rikenglik shunchaki ijtimoiy muomala me'yor emas, balki ruhiy kamolotning muhim sharti sifatida talqin etiladi[2].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bag'rikenglik g'oyasi ko'pincha siyosiy yoki huquqiy tushuncha sifatida talqin qilinmoqda, uning

chuqur ma'naviy va falsafiy ildizlari esa yetarlicha ochib berilmayapti. Maxdumi A'zam Kosoniy merosini tasavvufiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish esa bag'rikenglikning axloqiy-ruhiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, ekstremizm va murosasizlik holatlarining oldini olishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi[3].

Shuningdek, ushbu tadqiqot Yangi O'zbekiston sharoitida milliy-ma'naviy merosni qayta anglash, diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati bilan hamohangdir. Maxdumi A'zam ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalari bugungi yosh avlodni ma'naviy barkamol, mas'uliyatli va tolerant shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Maxdumi A'zam Kosoniyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar Markaziy Osiyo tasavvuf maktablari tarixini tahlil qiluvchi ilmiy ishlarda muhim o'rin egallaydi. Ushbu adabiyotlarni shartli ravishda bir necha guruhlariga ajratish mumkin: birinchisi, tasavvuf va Naqshbandiya tariqati tarixiga bag'ishlangan klassik va zamonaviy tadqiqotlar; ikkinchisi, Maxdumi A'zam Kosoniy shaxsiyati va merosini yorituvchi manbalar; uchinchisi, bag'rikenglik, tolerantlik va axloqiy-falsafiy muammolarni tahlil qiluvchi nazariy asarlardir[4].

Naqshbandiya tariqatining shakllanishi va rivoji masalalari Xoja Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy hamda ularning izdoshlari merosini tahlil qiluvchi tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Ushbu manbalarda tasavvufning ijtimoiy faollikka, jamiyat bilan uyg'unlikda yashashga asoslangan jihatlari alohida ta'kidlanadi. Aynan shu jihat Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotida bag'rikenglik

g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy mazmunini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[5].

Maxdumi A'zam Kosoniy shaxsiyati va ilmiy-ma'naviy merosiga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo'lsa-da, mavjud ilmiy ishlar uning Naqshbandiya tariqatidagi o'rni, tasavvufiy qarashlari va axloqiy ta'limoti haqida muhim ma'lumotlar beradi. Ayrim tadqiqotlarda mutasavvifning axloq, adolat, sabr-toqat va ruhiy poklanishga oid qarashlari tahlil qilingan, biroq bag'rikenglik g'oyasi mustaqil falsafiy kategoriya sifatida yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi[6].

Bag'rikenglik va tolerantlik masalalari zamonaviy falsafiy, sotsiologik va huquqiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. G'arb falsafasida tolerantlik asosan ijtimoiy kelishuv, huquqiy tenglik va fuqarolik jamiyati tamoyillari bilan bog'lab talqin etilsa, Sharq va islom falsafasida bu tushuncha axloqiy poklanish, rahm-shafqat va insoniylik g'oyalari bilan uzviy aloqada ko'riladi. Mazkur yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotidagi bag'rikenglikning o'ziga xos tasavvufiy-falsafiy mazmunini ochib berish imkonini beradi.

Shu boisdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Maxdumi A'zam Kosoniy merosida bag'rikenglik g'oyalarini kompleks, tizimli va falsafiy nuqtayi nazardan o'rganishga ehtiyoj mavjud bo'lib, ushbu maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Maxdumi A'zam asarlari va ular haqidagi ilmiy manbalardagi fikrlar tahlil qilinib, bag'rikenglik g'oyalarining asosiy tushunchaviy unsurlari ajratib olindi. Ushbu unsurlar sintez orqali yagona tasavvufiy-falsafiy tizim sifatida talqin etildi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali Maxdumi A'zam Kosoniy qarashlari boshqa tasavvuf mutafakkirlari, jumladan Xoja Bahouddin Naqshband, Imom G'azzoliy va Abdurahmon Jomiy ta'limotlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv bag'rikenglik g'oyasining umumtasavvufiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi[8].

Tadqiqotda germeneytik yondashuv ham muhim o'rin egalladi. Tasavvufiy matnlarning ramziy va majoziy mazmunini talqin qilish orqali Maxdumi A'zam ta'limotida bag'rikenglik g'oyasining chuqur ma'naviy-falsafiy mohiyati ochib berildi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuv asosida bag'rikenglik qadriyat sifatida baholanib, uning axloqiy va ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotida bag'rikenglik g'oyasi tasavvufiy-falsafiy qarashlarning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning qarashlarida bag'rikenglik nafaqat ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy me'yor, balki insonning ruhiy kamolotini ta'minlovchi muhim ma'naviy omil sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv tasavvufga xos bo'lgan "ichki poklanish orqali tashqi muvozanatga erishish" tamoyiliga to'liq mos keladi[9].

Ikkinchidan, Maxdumi A'zam ta'limotida bag'rikenglik g'oyasi axloqiy kamolot bilan uzviy bog'liqdir. Uning fikricha, nafsni jilovlash, sabr-toqat va tavozu' insonning ruhiy yetuklik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardir. Bag'rikenglik ana shu fazilatlarining amaliy ifodasi bo'lib, shaxsning o'zgalarga nisbatan kechirimlilik va hurmat bilan munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Bu esa jamiyatda nizolarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi[10].

Uchinchidan, mutasavvif qarashlarida bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy mazmuni ham chuqur ochib beriladi. Maxdumi A'zam Kosoniy tasavvufni jamiyatdan uzilgan ruhiy tajriba emas, balki ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etadi. U insonning ichki dunyosidagi poklanish jamiyatdagi munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Natijada bag'rikenglik shaxsiy fazilatdan ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tariladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotida bag'rikenglik diniy tolerantlik bilan ham chambarchas bog'liq. Mutasavvif e'tiqod masalasida majburlash va zo'ravonlikni inkor etib, insonning iymonini qalb pokligi va axloqiy yetukligi bilan baholaydi[11]. Shuningdek,

Maxdumi A'zam ta'limotida bag'rikenglik va adolat tushunchalari o'zaro dialektik birlikda namoyon bo'ladi. Mutasavvif uchun bag'rikenglik adolatsizlikka ko'z yumish emas, balki inson qadr-qimmatini e'zozlagan holda haqiqatni himoya qilishdir. Bu yondashuv bag'rikenglikning passiv emas, balki faol axloqiy pozitsiya ekanini ko'rsatadi. Aynan shu jihat uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan uyg'unlashtiradi[12].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalari quyidagi asosiy xulosaviy jihatlar bilan tavsiflanadi: birinchidan, bag'rikenglik ruhiy poklanish va axloqiy kamolotning muhim sharti sifatida talqin etiladi; ikkinchidan, u shaxsiy fazilatdan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi qadriyat darajasiga ko'tariladi; uchinchidan, diniy va madaniy xilmaxillikka hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asoslab beriladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Maxdumi A'zam Kosoniy ta'limotida bag'rikenglik g'oyasi tasavvufiy-falsafiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Mutasavvif qarashlarida bag'rikenglik insonning ruhiy poklanishi, axloqiy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyati bilan uzviy bog'langan qadriyat sifatida talqin etiladi. Ushbu g'oya shaxsiy fazilat darajasidan chiqib, jamiyatda barqarorlik va murosani ta'minlovchi ijtimoiy-me'yoriy tamoyilga aylanadi.

Tadqiqot natijalari Maxdumi A'zam Kosoniy merosidagi bag'rikenglik g'oyalari diniy tolerantlik, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanganini ko'rsatdi. Mazkur qarashlar bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash hamda yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxdumi A'zam Kosoniy. Risolalar majmuasi. Toshkent: Movarounnahr, 2005.
2. Naqshband B. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1993.
3. G'azzoliy I. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 2004.
4. Jomiy A. Nafohot ul-uns. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
5. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2001.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
7. Xayrullayev M. Sharq falsafasi va madaniyati. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Alimuhamedov R. Islom falsafasi va bag'rikenglik masalalari. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2016.
10. Abduqodirov A. Markaziy Osiyoda tasavvuf va ijtimoiy tafakkur. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
11. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
12. Саматов Х.У. Махдуми Аъзам Касани – теоретик и продолжатель тариката Накшбандия //Востоковедение: история и современность. – 2018. – С. 273-277.
13. Mardonov R. Historical and philosophical analysis of Eastern and Western education systems //International Journal For Advanced Research In Science & Technology/A peer reviewed international journal. www. ijarst. in. – 2021. – T. 11. – №. 02. – C. 252-256.
14. Ризаев И.И. Структура социальной системы-основа самоорганизации общества. – 2020.

